



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 19-dekabr

732-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-dekabrda PQ–421-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 13-dekabrda 600-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-dekabrda PQ–421-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 13-dekabrda 600-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-dekabrda PQ–421-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 13-dekabrda 600-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

quyidagilar jamoaviy sport turlarini (voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustida xokkey, suv polosi) rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

yoshlarning jamoaviy sport turlariga qiziqishini oshirish, ularning jamoaviy sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, sport musobaqalarini tizimli o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yishi;

terma jamoalar va professional sport klublari uchun sport zaxirasini yaratish, iqtidorli yosh sportchilarni aniqlash, tanlash va saralab olish (seleksiya)ning raqamlashtirilgan tizimini joriy qilishi;

trenerlar, hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishi;

jamoaviy sport turlarini rivojlantirish maqsadida chet ellik mutaxassislarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishi;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha zamonaviy sport obyektlarini barpo etish, mavjudlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta‘minlashi;

Jamoaviy sport turlari bilan muntazam shug‘ullanishni tashkil qilish hamda ushbu sport turlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda – “yo‘l xaritasi”) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–392-son qarori bilan 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab har bir maktabda bosqichma-bosqich maktab sport klublari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha, 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab:

barcha davlat universitetlarida voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustida xokkey, suv polosi jamoaviy sport turlari bo‘yicha, boshqa davlat oliy ta’lim muassasalarida kamida uchta jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport klublari tashkil etilishi. Bunda oliy ta’lim muassasalarining sport klublari faoliyati uchun tegishli oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori) shaxsan mas’ul hisoblanishi;

sport klubi raisi etib oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori) tayinlanishi, sport klubi menejeri lavozimi esa oliy ta’lim muassasasi kafedra mudiri lavozimiga tenglashtirilishi;

oliy ta’lim muassasalariga o‘z sport klublarini tegishli sport bazalariga beg‘araz asosda joylashtirish huquqi berilishi;

oliy ta’lim muassasalarining sport klublarini saqlash, ularni sport jihozlari va ekipirovkalari bilan ta’minlash oliy ta’lim muassasalarining to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lari va budjetdan tashqari boshqa mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

oliy ta’lim muassasalarining har yilgi budjetdan tashqari daromadlar va xarajatlar smetasida sport klublarini saqlash bo‘yicha xarajatlar ko‘zda tutilishi;

bunda oliy ta’lim muassasalarining sport klublari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga tashkiliy va uslubiy ko‘maklashish O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilishi;

2025-2026-o‘quv yilidan boshlab jamoaviy sport turlari bo‘yicha:

a) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X.Umarova) Sport vazirligi (A.Ikramov) bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim maktablari maktab sport klublari o‘rtasida “Maktab ligasi”;

b) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K.Sharipov) Sport vazirligi (A.Ikramov) hamda O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi bilan birgalikda:

oliy ta’lim muassasalari sport klublari o‘rtasida “Talabalar ligasi” va “Oliy ta’lim kubogi”;

oliy ta’lim muassasalari miqyosida “Rektor kubogi” sport musobaqalarini o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yishi;

Vazirlik va idoralar, xo‘jalik birlashmalari, davlat ishtirokidagi tijorat banklari va korxonalar (keyingi o‘rinlarda - idoraviy tashkilotlar) mehnat jamoasining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida ularda kamida uchta jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport klublari tashkil qilinishi. Bunda:

ish vaqtidan so‘ng belgilangan kunlarda (haftada kamida bir marta) idoraviy tashkilotlar rahbarlari mehnat jamoasining jamoaviy sport turlari bilan shug‘ullanishini tashkil qilish choralarini ko‘rishi;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha idoraviy tashkilotlar kesimida “Rahbar kubogi”, mahalliy hokimliklar kesimida “Hokim kubogi” musobaqalari o‘tkazib borilishi;

sport musobaqalari g‘olib va sovrindorlari sport musobaqalari tashkilotchilarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyaviy rag‘batlantirib borilishi;

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (Q.Kuranbaev) Sport vazirligi (A.Ikramov), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X.Umarova), Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi (Z.Mahkamova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa’dullaev) va “Nuroni” jamg‘armasi (S.Turdiyev) bilan birgalikda:

“mahalla yettiligi” imkoniyatlaridan foydalangan holda har bir mahalla aholisini mahalla hududidagi mavjud sport infratuzilmasi va umumiy o‘rta ta’lim maktablari sport inshootlarida jamoaviy sport turlari bilan shug‘ullanishga jalb qilib borishni yo‘lga qo‘ysin;

mahallalar o‘rtasida “Mahalla ligasi” musobaqalarini o‘tkazib borishi;

Sport vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida jamoaviy sport turlari bo‘yicha hududiy sport klublari (keyingi o‘rinlarda - hududiy sport klublari) faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi; belgilab qo‘yilishicha;

idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qati nazar, sport klublari yuridik shaxs maqomi bilan yoki yuridik shaxs maqomisiz tashkil qilinishi;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan sport ligalarini o‘tkazib borish yo‘lga qo‘yilishi;

sport ligalarida mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qati nazar, har qanday sport klublari, shu jumladan, hududiy sport klublari ishtirok etishi;

sport ligalarini o‘tkazib borish tartibi jamoaviy sport turlari bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan Sport vazirligi va O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi;

sport ligalarini o‘tkazib borish bilan bog‘liq xarajatlar Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalendar rejasi doirasida moliyalashtirilishi;

hududiy sport klublarining sport ligalaridagi natijalaridan kelib chiqib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari reytingini shakllantirish va yuritish yo‘lga qo‘yilishi;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha yuqori mahoratli sportchilar va malakali trenerlarni tayyorlash hamda sport tayyorgarligi jarayoniga xalqaro standartlarni joriy qilish maqsadida;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalar a‘zolarini muntazam mahalliy va xorijiy o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlariga yuborish yo‘lga qo‘yilishi;

jamoaviy sport turlari bo‘yicha tahsil olayotgan “Sport faoliyati” bakalavriat yo‘nalishlari talabalarini doimiy mahalliy va xorijiy o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlariga jalb qilish hamda xorijlik mutaxassislarga biriktirish tartibi joriy etilishi;

belgilanishicha, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtidorli yoshlarni saralab olish (seleksiya)ning shaffof tizimini joriy etish maqsadida 2025-2027-yillarda “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish (seleksiya) bo‘yicha texnik imkoniyatlar yaratilishi. Bunda:

har bir jamoaviy sport turi bo‘yicha alohida mezonlar ishlab chiqilishi; sportchilarning joriy jismoniy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “ERP-sport”

yagona elektron boshqaruv tizimiga yuklab borish mexanizmi yoʻlga qoʻyilishi; sunʻiy intellektdan foydalangan holda toʻplangan maʼlumotlarni tahlil qilish hamda sportchilarning jismoniy holati va imkoniyatlarini baholash tizimi joriy etilishi; jamoaviy sport turlari boʻyicha iqtidorli sportchi yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish (seleksiya) jarayoni toʻliq raqamlashtirilishi;

iqtidorli sportchi yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish boʻyicha (seleksiya) texnik imkoniyatlar yaratish bilan bogʻliq xarajatlar Sportni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishi;

Sport vazirligi, Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi va sport federatsiyalari (uyushmalari)ning Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi va olimpiya sport turlari boʻyicha sport federatsiyalari (uyushmalari) oʻrtasida oʻzaro majburiyatlar kelishuvini tuzish tizimini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisidagi taklifga rozilik berilganligi;

belgilanishicha;

oʻzaro majburiyatlar kelishuvi Olimpiya oʻyinlari oʻtkaziladigan muddatga qadar tuzilishi;

oʻzaro majburiyatlar kelishuvida sport federatsiyasi (uyushmasi)ning nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish boʻyicha vazifalari va majburiyatlari koʻzda tutilishi;

sport federatsiyasi (uyushmasi)ning nufuzli xalqaro sport musobaqalaridagi natijalaridan kelib chiqib, ularning faoliyatini moliyalashtirish miqdorlari belgilab borilishi;

jamoaviy sport turlari boʻyicha yuqori mahoratli sportchilar va malakali trenerlarni tayyorlash hamda sport tayyorgarligi jarayoniga xalqaro standartlarni joriy qilish maqsadida;

jamoaviy sport turlari boʻyicha milliy terma jamoalar aʼzolarini muntazam mahalliy va xorijiy oʻquv-yigʻin mashgʻulotlariga yuborish yoʻlga qoʻyilishi;

jamoaviy sport turlari boʻyicha tahsil olayotgan “Sport faoliyati” bakalavriat yoʻnalishlari talabalarini doimiy mahalliy va xorijiy oʻquv-yigʻin mashgʻulotlariga jalb qilish hamda xorijlik mutaxassislarga biriktirish tartibi joriy etilishi;

belgilanishicha, ilgʻor texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtidorli yoshlarni saralab olish (seleksiya)ning shaffof tizimini joriy etish maqsadida 2025-2027-yillarda “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish (seleksiya) boʻyicha texnik imkoniyatlar yaratilishi, bunda:

har bir jamoaviy sport turi boʻyicha alohida mezonlar ishlab chiqilishi; sportchilarning joriy jismoniy holati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimiga yuklab borish mexanizmi yoʻlga qoʻyilishi; sunʻiy intellektdan foydalangan holda toʻplangan maʼlumotlarni tahlil qilish hamda sportchilarning jismoniy holati va imkoniyatlarini baholash tizimi joriy etilishi; jamoaviy sport turlari boʻyicha iqtidorli sportchi yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish (seleksiya) jarayoni toʻliq raqamlashtirilishi;

iqtidorli sportchi yoshlarni aniqlash, tanlash va saralab olish boʻyicha (seleksiya) texnik imkoniyatlar yaratish bilan bogʻliq xarajatlar Sportni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishi;

Sport vazirligi, Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi va sport federatsiyalari (uyushmalari)ning Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi va olimpiya sport turlari boʻyicha sport

federatsiyalari (uyushmalari) o'rtasida o'zaro majburiyatlar kelishuvini tuzish tizimini yo'lga qo'yish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha;

o'zaro majburiyatlar kelishuvi Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan muddatga qadar tuzilishi;

o'zaro majburiyatlar kelishuvida sport federatsiyasi (uyushmasi)ning nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish bo'yicha vazifalari va majburiyatlari ko'zda tutilishi;

sport federatsiyasi (uyushmasi)ning nufuzli xalqaro sport musobaqalaridagi natijalaridan kelib chiqib, ularning faoliyatini moliyalashtirish miqdorlari belgilab borilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga hududiy sport klublarini saqlash xarajatlarini amalga oshirishda moliyaviy mustaqillik berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat Sport boshqarmasi (A.Tuychiyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Namangan shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda:

bosqichma-bosqich hududiy sport klublarini rivojlantirish va moliyalashtirish, shuningdek, hududiy sport klublariga homiy tashkilotlarni biriktirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirib borsishi;

jamoaviy sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari)ning hududiy bo'linmalari moliyaviy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga ko'maklashishi;

tegishli hududlarning rahbar kadrlari orasidan nomzodlarni jamoaviy sport turlari bo'yicha sport federatsiyalari (uyushmalari)ning hududiy bo'linmalari rahbarlari lavozimiga tavsiya etib borishi;

hududiy sport klublari natijalari va ularni rivojlantirish borasidagi muammolarni muhokama qilib borishi topshirilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Sport maktabi (M.Abduqodirov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi (Y.Mamitaliyeva), Yoshlar ishlari tuman bo'limi (M.Mamasobirov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), "Nuroniyy" jamg'armasi tuman bo'limi (M.Saidmurodova) tumandagi tegishli tashkilot, idora va muassasalar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-421-son qarorining ilovasidagi "yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**